



BARQAROR TARAQQIYOTDA AYOLLAR: ILM-FAN VA SIFATLI TA'LIM

WOMEN IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT: SCIENCE AND QUALITY EDUCATION

XALQARO ILMIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMI



O'zbekiston Respublikasi
**OLIJ MAJLISI
SENATI**



**Toshkent davlat
sharqshunoslik
universiteti**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJ TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



**O'zbekiston Respublikasi
Fanlar Akademiyasi**



**O'zbekiston
Xotin-qizlar qo'mitasi**



**YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI**



Erasmus+



**Abdulla Qodiriy
Ijod maktabi**

TOSHKENT - 2023

**BARQAROR TARAQQIYOTDA AYOLLAR:
ILM-FAN VA SIFATLI TA'LIM
III XALQARO KONFERENSIYA TO'PLAMI**

**WOMEN IN SUSTAINABLE
DEVELOPMENT: SCIENCE AND
QUALITY EDUCATION
3RD INTERNATIONAL CONFERENCE PROCEEDINGS**

**ЖЕНЩИНЫ В УСТОЙЧИВОМ
РАЗВИТИИ: НАУКА И
КАЧЕСТВЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ
III СБОРНИК МЕЖДУНАРОДНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

Toshkent- 2023

Barqaror taraqqiyotda ayollar: ilm-fan va sifatli ta'lim. III xalqaro konferensiya to'plami. – Toshkent, 2023. – 747 b.

Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Barqaror Rivojlanish Maqsadlarida sobitqadamlik bilan borayotgan, ilm-fanga o'zining hissasini qo'shayotgan ayollar, ularning kelajak avlodni o'qitishdagi innovatsion-motivatsion qarashlari, sifatli ta'limni tashkil qilishdagi zamonaviy yondashuvlari, sifatli ta'lim mexanizmini oshirishning samarali usullari bo'yicha takliflari, dunyo ta'lim standartlarining yutuq va kamchiliklarini taqqoslash natijasida yuzaga kelgan tavsiyalarni o'zida aks ettiradi. Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya jamlanmasida 20 ga yaqin xorijlik ekspertlarning fikr va tavsiyalari joy olgan bo'lib, O'zbekistonning 120 dan ortiq zabardast tahlilchilari va olimlarining tavsiyaviy xarakterdagi munosabatlari ushbu to'plamda aks etgan.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2023-yil 25-fevraldagi ____ yig'ini qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrirlar:

X. V. Mirzaxmedova	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Eron-afgon filologiyasi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
N.R. Karimov	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi Sharq madaniyati va merosini tadqiq etish ilmiy tadqiqot markazi direktori

Taqrizchilar:

H. B. Nazirova	Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi direktori, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
U.T. Saydazimova	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Koreys filologiyasi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Tahrir guruhi:

G.Yunusova, N. Imomova, N. Xodjayeva, Z. Qodirova, N. Xolmurzayeva, F.Zokirjonova, N. Ismatullayeva, D. Xojimurotova, G'. Jumayev, A. Shosaidov, M.Turdixojayeva, A. Abduhalilova, M.Mardonova

©Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

МУНДАРИЖА

<i>Танзила Нарбаева, Ойниса Мусурманова, Зухра Исмаилова</i>	ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ: ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ДАВЛАТ ВА ЖАМИЯТ БОШҚАРУВИДАГИ РОЛИ	1-17
<i>Гулчеҳра Рихсиева</i>	ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШ ВА ИЛМИЙ САЛОҲИЯТНИ ОШИРИШ – БУГУНГИ ОЛИЙ ТАЪЛИМНИНГ ЕТАКЧИ МАҚСАДИ	18-26
<i>Нодира Мустафоева</i>	ЎЗБЕКИСТОН ИЛМ-ФАНИ РИВОЖИДА ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ ОЛИМАЛАРНИНГ ҲИССАСИ: ТАРИХ ВА ЗАМОН	27-31
<i>Каёко Хаяши</i>	ЯПОНИЯ ЖАМИЯТИДА АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ	32-35
<i>Дилорам Таимухамедова</i>	ЦИФРОВАЯ МОЛОДЕЖЬ И ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ОБРАЗОВАНИЯ	36-42
<i>Rei Kufukihara</i>	USING SCIENCE TO PROMOTE AND EDUCATE ON JAPANESE CULTURE INTRODUCING THE TALE OF GENJI AS AN EXAMPLE	43-49
<i>Aziza Abdurakhmanova</i>	THE OPPORTUNITIES FOR WOMEN WITHIN THE EU- FUNDED PROGRAMME FOR EDUCATION AND SCIENTIFIC RESEARCH	50-58
<i>Жамила Шермухамедова</i>	ГЕНДЕР ТЕНГЛИГИНИНГ ШАРҚОНА МАЪРИФАТИ	59-63
<i>Дилноза Каттахонова</i>	ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШ АЁЛ-ҚИЗЛАРНИНГ ТАЪЛИМИ ВА ИЛМИЙ ФАОЛИЯТИ ТАҲЛИЛИ	64-67
<i>Mohira A. Jaloliddinova</i>	MULK QIYMATINI BAHOLASH TUSHUNCHASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	68-74
<i>Dilmurod Ernazarov, Sevinch Zuhriddinova</i>	O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM TIZIMINING TRANSFORMATSIYALASHUVIDA DAVLAT VA NODAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARINING O‘ZARO RAQOBATI: BUGUNGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI	75-78
<i>Hilola Nazirova, Saida Karabayeva</i>	IJOD MAKTABLARIDA O‘QUVCHI QIZLARNING ILMIY FAOLIYATGA BO‘LGAN MUNOSABATI	79-87
<i>Prof. Dato‘ Dr Fariza Md Sham</i>	WOMEN IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT: IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION IN MALAYSIA	88-90
<i>Dr. Sima Abbasi</i>	THE EFFECT OF WOMEN’S EDUCATION ON SUSTAINABLE DEVELOPMENT: ENVIRONMENT	91-100

<i>Nandini Bhattacharya</i>	THE PROCESS OF RECYCLE REUSE AND REDUCE AS AN ESSENTIAL SCIENTIFIC AWARENESS TO SUSTAIN THE ENVIRONMENT ROLE OF WOMEN IN THE MOVEMENT BEYOND FORMAL SCIENTIFIC EDUCATION ABSTRACT	101-103
<i>Nazira T. Ergesheva</i>	IMPLEMENTING THE PRACTICAL TECHNIQUES FOR VIDEO IMPLICATION IN CONTENT AND LANGUAGE INTEGRATED LEARNING	104-108
<i>Саодат Насирова</i>	ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СИСТЕМЕ ОХРАНЫ ТРУДА ЖЕНЩИН (НА ПРИМЕРЕ АНАЛИЗА ОПЫТА КИТАЯ В ВОПРОСЕ РЕПРОДУКТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ)	109-113
<i>Dr. Summera Khalid</i>	WOMEN IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT: SCIENCE AND QUALITY EDUCATION	114-119
<i>Kalanova Dilnoza</i>	JANUBIY KOREYADA TA'LIMNING O'RNI	120-122
<i>Азиза Э. Абдухалилова</i>	ХИВА ХОНЛИГИ СОЛИҚ ТИЗИМИ ЎРГАНИШДА АЁЛ ТАДҚИҚОТЧИЛАР ЎРНИ	123-125
<i>Сайёра Саидова</i>	ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИДА АЁЛ-ҚИЗЛАР МАСАЛСИ	126-130
<i>Отабек Иззатиллаев</i>	О НЕКОТОРЫХ АСПЕКТАХ РЕЙТИНГОВОЙ ОЦЕНКИ ГЕНДЕРНОГО ПАРИТЕТА В ОБРАЗОВАНИИ	131-139
<i>Нозима Махатова</i>	АЁЛЛАРНИНГ БОШҚАРУВДАГИ РОЛИ ВА ГЕНДЕР ТАФОВУТЛАРДА АЁЛ РАҲБАРЛАРНИНГ УСТУН ЖИҲАТЛАРИ	140-148
<i>А.Б. Абдумуталипов</i>	КУРСАНТ ҚИЗЛАР ЎРТАСИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ТАРҒИБ ҚИЛИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИ	149-152
<i>Саодат Убайдуллаева</i>	МАРКАЗИЙ ОСИЁДА МИНТАҚАВИЙ ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК МАСАЛАЛАРИ	153-156
<i>Зохидахон Эшонкулова</i>	АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ	157-161
<i>Надира Халмурзаева</i>	ЯПОНИЯ ҲУКУМАТИ ТОМОНИДАН АЁЛЛАРНИ ҚЎЛЛАБ ҚУВВАТЛАШ МАСАЛАЛАРИ БОРАСИДА ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН СИЁСАТ	162-170
<i>Нилуфар Имамова</i>	БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА СИФАТЛИ ТАЪЛИМНИНГ ЎРНИ	171-177

<i>Umidjon Sh. Sadullayev</i>	O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARGA BERILAYOTGAN E'TIBOR: MAHALLA BOSHQARUVIDA XOTIN-QIZLARNING ROLI	178-182
<i>Nurkhon Safarova</i>	USING MODERN PEDAGOGICAL AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING ORAL SPEECH AT THE EFL UZBEK CLASSES	183-193
<i>Gulshan Sharipova</i>	YANGI DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR YO'LIDAGI O'ZBEKISTONDA GENDER SIYOSATINING HUQUQIY HOLATI VA AYOLLARNING MULKIY MUNOSABATLARDA FAOL ISHTIROKINI TA'MINLASH CHORALARI	194-198
<i>Alijon Shomurodov</i>	BARQAROR TARAQQIYOTDA AYOLLAR: ILM-FAN VA SIFATLI TA'LIM	199-203
<i>Шавкат Тўраев</i>	ХОТИН-ҚИЗЛАР - БУГУННИНГ МАФКУРАВИЙ КУРАШЛАР МАРКАЗИДА	204-210
<i>Feruza Tadjiyeva</i>	AYOLGA E'TIBOR- JAMIYAT KELAJAGIGA E'TIBORDIR	211-217
<i>Dildora Tulyaganova, Feruza L. Azizova, Ilmira R. Urazaliyeva, Fatima B. Tashxodjayeva</i>	ANALYSIS OF REHABILITATION SERVICE AND NURSING ACTIVITY AT BOARDING HOUSE FOR DISABLED CHILDREN	218-224
<i>Shaxnoza Sharafova</i>	SPORT MASHG'ULOTLARI BILAN SHUG'ULLANISHNING TALABA QIZLAR ORGANIZMIGA AHAMIYATI	225-229
<i>Yayraxon To'raboyeva</i>	O'ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA'LIMDA AYOLLARNING ISHTIROKI	230-234
<i>Малоҳат Пулатова</i>	ЖАННАТ ОНАЛАР ОЎФИ ОСТИДАДИР	235-242
<i>Oksana Raxmonkulova</i>	ILM-FAN VA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XOTIN-QIZLARNING QO'SHGAN HISSASI (O'ZBEKISTONNING JANUBIY VILOYATLARI MISOLIDA)	243-249
<i>Ҳилола Якубова</i>	ХОТИН-ҚИЗЛАР МАДАНИЙ-МАЪРИФИЙ ВА СОҒЛОМЛАШТИРИШ МАРКАЗИНИ ЯРАТИШ ДАВР ТАЛАБИДИР	250-254
<i>Mahsuma Ismoilova</i>	YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLAR ROLINI YANADA OSHIRISHNING GENDER MASALALARI	255-260
<i>Фарида Эшназарова</i>	ЁШЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ	261-264

<i>Мубинабону Рузиева</i>	ВОЯГА ЕТМАГАН КИЗЛАР ОРАСИДА ЖИНОЯТЧИЛИКНИ ОЛДИНИ ОЛИШДАГИ МУАММО ВА ЕЧИМЛАР	265-269
<i>Alisher Doniyorov, Mahliyo Turdixo'jayeva</i>	FARG'ONA VODIYSINI O'RGANGAN AYOL ARXEOLGLAR	270-273
<i>Sevara Yarova</i>	O'QUV-TARBIYAVIY ISHLARINI TASHKIL ETISHDA XOTIN-QIZLARNING KASBIY KOMPETENTLIGI VA GENDER YONDASHUV	274-279
<i>Rustam Toxirov</i>	KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA SUN'IY INTELLEKTNI O'RGATISH AFZALLIKLARI	280-287
<i>Nodira Saidnazarova</i>	BARQAROR TARAQQIYOTDA AYOLLARNING O'RNI, ILM-FAN VA SIFATLI TA'LIM	288-293
<i>Gulzodaxon Teshaboyeva, Dildoraxon Saidjonova</i>	BARKAMOL FARZANDLAR YETUK OILADA SHAKLLANADI	294-299
<i>Maftunabonu Abdukarimova</i>	O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA GENDER TENGLIGI MASALASI	300-303
<i>Моҳинур Рўзиева</i>	ЎЗБЕКИСТОН ХОТИН ҚИЗЛАРИ: ЎТМИШ ВА БУГУН	304-309
<i>Мухаббат Салиева, Дилиода Мубаракова</i>	ШАРҚ ДАВЛАТЛАРИДА ГЕНДЕР ВА ҲУҚУҚИЙ КОММУНИКАЦИЯ	310-318
<i>Дилорам Аширбаева</i>	КОРЕЙС ВА ЎЗБЕК ОИЛАСИДА АЁЛЛАРГА МУРОЖААТЛАР	319-325
<i>Ойбек Исаев</i>	ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪЛИМ ДАСТУРЛАРИ ОРҚАЛИ ТАКАФУЛНИ ЎРГАНИШ МАСАЛАЛАРИ	326-332
<i>Abdulxamit Mirzayev</i>	QIZLARNI BELBOG'LI KURASHGA O'RGATISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINI TARG'IB QILISH MECHANIZMLARI	333-337
<i>S.A. Khashimova</i>	ABOUT THE BOOK "I AM MALALA"	338-339
<i>Nilufar Matkarimova</i>	XOTIN-QIZLARNI IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA STEAM TA'LIM IMKONIYATLARI	340-345
<i>Нуриддин Аликариев</i>	ПРОФЕССОР-ЎҚИТУВЧИЛАР ИННОВАЦИОН САЛОҲИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА	346-354
<i>Ақром Мирзакулов</i>	ИЧКИ ИШЛАР ВАЗИРЛИГИ АКАДЕМИЯСИ КУРСАНТ ҚИЗЛАРИНИНГ ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРИНИ ФУНКЦИОНАЛ КЎПКУРАШ (КРОССФИТ) СПОРТ ТУРИ ОРҚАЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ	355-358

<i>Элнурса Турдиалиева, Дурдона Кодирова</i>	ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ХОТИН-ҚИЗЛАР БОШҚАРУВ КАРЬЕРАСИНИНГ ИЖТИМОЙ ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ	359-363
<i>Shaxlo Ubaydullayeva</i>	ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA XOTIN-QIZLAR MASALASI (SOGLIQNI SAQLASH VA TIBBIYOTDAGI O'RNINI MISOLIDA)	364-371
<i>Мавлуда Файзиева</i>	ТАЛАБАЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК	372-376
<i>Гульшада Уразалиева</i>	РОЛЬ ГЕНДЕРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОДВИЖЕНИИ ИДЕЙ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА	377-384
<i>Shirin Zaynutdinova</i>	TALABA QIZLARNING ILMIY TADQIQOT FAOLIYATIGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH	385-390
<i>Хилола Очилова</i>	ЖЕНЩИНЫ УЧЁНЫЕ В ИЗУЧЕНИИ STEM ДИСЦИПЛИН	391-397
<i>Gulnoza Nafasova</i>	FIZIKA O'QITUVCHILARI GENDER TENGLIGI MASALASIDA MANTIQUIY KOMPETENTLIKNI ANAMIYATI	398-401
<i>Nilufar Yuldasheva</i>	CHARACTERISTICS OF VOLITIONAL REGULATION OF STUDENTS OF EXACT SCIENCES ACCORDING TO GENDER	402-411
<i>Sadoqatoy Orinova, Gulnozaxon Khojimatova</i>	THEORETICAL ASPECTS OF HEAT, PARTICIPATION OF WOMEN AND GIRLS WORKING IN GREENHOUSES IN THE TECHNOLOGY SYSTEM HUMAN-PLANTS- ENVIRONMENT	412-418
<i>Elboy Arziqulov</i>	YOSHLARGA SIFATLI TA'LIM BERISHDA MA'NAVIY MADANIY TARBIYANING UZVIYLIGI	419-424
<i>Тўлганой Саидназарова, Отабек Холиқов</i>	ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА ЛОЙИХАЛАШ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ИНДИВИДУАЛ- ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ	425-437
<i>Маъмурахон Алишерхўжаева</i>	СИФАТЛИ ТАЪЛИМДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИГИ – ЮНЕСКО МИССИЯСИНИНГ УСТУВОР ЙўНАЛИШИ	438-446
<i>Zarnigorxon Meliqo'ziyeva</i>	EKOLOGIK MADANIYATNI TA'LIM TIZIMI ORQALI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON PLATFORMALARDAN FOYDALANISH	447-451
<i>Алишер Мадрахимов</i>	АЁЛЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ТАРМОҚДАН Фойдаланиш МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ЖИХАТЛАРИ	452-458

<i>Bonu Sarimova</i>	A WOMAN SCIENTIST'S RESEARCH FOR QUALITY EDUCATION	459-463
<i>Ra'no Nosirova</i>	NODIRABEGIM - QO'QON MADANIYATI HOMIYSI	464-469
<i>Oydin Nurullayeva</i>	TUG'RUQ TRAVMALARI - NOGIRONLIKKA SABAB BO'LUVCHI OMILDIR	470-474
<i>Sabrina Salimova</i>	ISLOM OLAMIDAGI FOTIMA ISMLI AYOLLARNING ILMGA BO'LGAN RAG'BATI	475-480
<i>Farzona Tajimatova</i>	YANGI O'ZBEKISTONDA AYOLLARGA E'TIBOR HAMDA YURTIMIZNING TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANISHIDA ULARNING O'RNI VA AHAMIYATI	481-486
<i>Моҳинур Розубаева</i>	ЖЕНЩИНЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ: НАУКА И КАЧЕСТВЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ”	487-493
<i>Zarnigor Xoliqova</i>	YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA LIDER AYOLLARNI TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	494-501
<i>Zarnigor Safarova</i>	TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINI O'RGANISH: TIL VA JINS FARQLARI VA O'XSHASHLIKLARI	502-541
<i>Рустам Джумаев Камола Саидова</i>	ПРИОРИТЕТ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА	509-513
<i>Asilbek Madolimov</i>	O'ZBEKISTONDA ILM-FANDA AYOLLARNING O'RNI VA ULARGA YARATILGAN IMKONIYATLAR	514-518
<i>Мухлиса Жумаева</i>	МАМЛАКАТИМИЗДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ	519-523
<i>Barno Xalmatova</i>	TIBBIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY IMMITATSION O'QITISH USULLARINING O'RNI	524-531
<i>G.X Bakiyeva, M.N Israilova</i>	TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA LOTIN TILI O'QITISHNING HOZIRGI DOLZARB MUAMMOLARI	532-535
<i>Зулфия Пулатова</i>	ЁЗУВ МАЛАКАСИНИ БАҲОЛАШ МЕТОДИ (ЮРИДИК ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИ БИЛАН ИШЛАШ МИСОЛИДА)	536-544
<i>Shaxnoz X. Samiyeva</i>	OLIY TA'LIMDA KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA O'QITISH SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI	545-551
<i>Нигора Хайдарова</i>	АНИМАЦИЯ САНЪАТИНИ ЎҚИТИШДА СИФАТЛИ БАДИИЙ ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИЯ	552-557

<i>Madina Badritdinova</i>	KOGNITIV USLUB VA SHAXSNING MILLIY XUSUSIYATLARI NAMOYON BO'LISHIDA GENDER FARQLARNING AHAMIYATI	558-564
<i>Гавхарнисо Сотикулова</i>	ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ УЗБЕКИСТАНА	565-570
<i>Nilufar Niyozova</i>	O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM RIVOJIDA SIFATLI O'QITISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI	571-575
<i>Nigora Mirzaqulova</i>	BUGUNGI TA'LIM TIZIMIDA MUMTOZ MUSIQA SAN'ATINING TARBIYAVIY XUSUSIYATLARI	576-581
<i>Шахло Аҳмедова</i>	ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТГА ЙЎНАЛТИРИШ МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ	582-588
<i>Feruza Ergasheva</i>	PROBLEMS AND SOLUTIONS OF DISTANCE LEARNING IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING	589-593
<i>Mashkura Komilova</i>	SCIENCE AND INNOVATION IS A FACTOR OF SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	594-599
<i>Дана Камилла</i>	ИСТОРИЯ ПОЛОЖЕНИЯ ЖЕНЩИНЫ В ОБЩЕСТВЕ В УЗБЕКИСТАНЕ И КИТАЕ	600-605
<i>Ирода Сирожиддинова</i>	ПЕДАГОГИК МАҲОРАТНИНГ ЁШЛАР ОНГИГА КАСБ-ҲУНАР ТАЪЛИМИНИНГ ИЖТИМОЙ-АҲЛОҚИЙ МОҲИЯТИНИ СИНГДИРИШДАГИ РОЛИ	606-612
<i>Дилафруз Холмирзаева, Мадинабону Каримова, Насимахон Сарқулова</i>	ТЕХНОЛОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИНГ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ “ТЕХНОЛОГИЯ” ЎҚУВ ФАНИДА ТАҚДИМ ЭТИЛИШИ	613-619
<i>Zulxumor Kuchkarova Nilufar Koshanova</i>	OLIYGOHLARDAGI SIFATLI TA'LIM JARAYONIDAGI AYRIM MUOMMOLAR	620-626
<i>Feruza Lutfullayeva</i>	O'ZBEKISTONDA DAVLAT XIZMATI SOHASIDA XOTIN-QIZLAR UCHUN IMKONIYATLAR	627-631
<i>Shohistaxon Obidjonova</i>	TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK USULLARDAN FOYDALANISH	632-636
<i>Sarvinoz Xojiyeva</i>	ZAMONAVIY O'QITISH JARAYONINI TASHKIL ETISH VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR (kimyo fani misolida)	637-703
<i>Шаҳрибону Ғофурова</i>	АЁЛЛАРНИНГ ЕТАКЧИЛИК КАСБИЙ КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИНСТИТУТЛАРИ ТЎҒРИСИДА	644-649

<i>Madina Xamroyeva</i>	BIOLOGIYANI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	650-655
<i>Дилдора Жураева</i>	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ	656-661
<i>Feruza Berdibekova</i>	TALABALARNING AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA KASBIY MUAMMOLARNI HAL QILISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TIZIMI	662-667
<i>Азиза Асланова</i>	АНАЛИЗ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЖЕНЩИН/ДЕВУШЕК В УЗБЕКИСТАНЕ	668-675
<i>Makhliyo Furkatova</i>	INTERPRETATION OF THE PHENOMENON OF LANGUAGE TRANSFER AND SYNTACTIC DERIVATION	676-685
<i>Elmira Berdirasulova</i>	KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA TAFAKKUR OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI	686-690
<i>Комила Саидкаримова</i>	АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ	691-696
<i>Kamolola Esanova</i>	BARQAROR TARAQQIYOTDA AYOLLAR: ILM-FAN VA SIFATLI TA'LIM	697-700
<i>Kamolola Bakhrullayeva</i>	EDUCATION IS THE GATEWAY TO SUCCESS	701-705
<i>Boburjon O'lmasxanov, Xurshida Badritdinova, Munavvar Isakdjanova</i>	TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI	706-711
<i>Ra'no Xaydarova, Shoira Abdullayeva</i>	YOSH MUTAXASSISLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATGA MUVAFFAQIYATLI MOSLASHUVINI TA'MINLOVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	712-717
<i>Дилдор Пўлатова</i>	ОИЛА ВА ЖАМИЯТ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШИНИ ТАЪМИНЛАШДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ЎРНИ	718-724
<i>Нилуфархон Қобулова</i>	ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ НОАНЪАНАВИЙ ШАКЛЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ СИФАТИНИ ОШИРИШ	725-732
<i>Шарофиддин Б. Хонимов</i>	ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАРГА ОИД СИЁСАТ – ДАВЛАТ СИЁСАТИНИНГ АСОСИЙ ТАРКИБИЙ ҚИСМИ ВА УНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ЯНАДА ОШИРИШ ЖАРАЁНЛАРИ	733-740

Sabohat Qahharova

TEZAURUSNING SEMANTIK TAHLILLARDAGI O‘RNI

741-747

Otabek Fayzullov

ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТЧИЛАРИНИНГ
СИЁСИЙ ИМИДЖИ

748-753



WOMEN IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT: SCIENCE AND QUALITY EDUCATION

3RD INTERNATIONAL CONFERENCE



TEZAURUSNING SEMANTIK TAHLILLARDAGI O'RNI

Sabohat Qahharova

O'zMU tayanch doktoranti

sabohatqahhorova922@gmail.com

Kalit so'zlar: ideografik lug'atlar, tezaurus lug'atlar, analog lug'at, o'quv tipidagi ideografik lug'at, bosma tezauruslar, elektron tezauruslar, assotsiativ tezauruslar, vizual tezauruslar.

Annotatsiya: Zamonaviy axborot texnologiyalarning hayotga tatbiq etilishi barcha sohalar qatori tilshunoslikda ham mavjud lug'atlarning turi, shakli, uning mazmun-mohiyatini tubdan isloh qilish, o'zgartirish talabini qo'ymoqda. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda tilning tizimli tabiatining yaqqol namunasi sanalgan yangicha lug'at turlaridan ideografik, tezaurus lug'atlar foydalanuvchilar uchun bir qator qulayliklarga ega lug'at hisoblanadi. Shu sabab ushbu maqolada ideografik va tezaurus lug'atlarning o'ziga xos xususiyatlari, bir necha turlari, ularning umumiy jihatlari, shuningdek, bu kabi lug'atlarning yaratilishi nafaqat bugungi kun o'zbek tilshunosligi rivoji uchun, balki shu tilni samarali o'qitish-o'rgatish uchun ham o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Bundan tashqari tezauruslar alohida so'zning ma'naviy guruhlarini elektron formatda tavsiflashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ayni vaziyatda tezaurus sifatli tarjima jarayonini amalga oshirishda ancha qulayliklarni yuzaga keltiradi.

THE ROLE OF THE THESAURUS IN THE SEMANTIC ANALYSIS

Key words: ideographic dictionaries, thesaurus dictionaries, analog dictionaries, educational-type ideographic dictionaries, printed thesauruses, electronic thesauruses, associative thesauruses, visual thesauruses.

Abstract: The implementation of modern information technologies imposes a requirement for radical reform, transformation of the type, form of dictionaries, its content, existing in linguistics, among all fields. From this point of view, ideographic, thesaurus dictionaries from new types of vocabularies, which are considered an accurate example of the systemic character of the language today, are considered dictionaries with a number of amenities for users. That is why in this article feedbacks were recorded on the peculiarities of ideographic and thesaurus dictionaries, several types, their common aspects, as well as the fact that the creation of such dictionaries is of particular importance not only for the development of Uzbek linguistics today, but also for effective teaching of this language. Besides thesaurus

is considered one of the most effective means of describing the meaningful groups of a separate word in electronic format. In this situation, thesaurus is brought much convenience when carrying out a quality translation process.

РОЛЬ ТЕЗАУРУСА В СЕМАНТИЧЕСКОМ АНАЛИЗЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:	Внедрение	современных
идеографические тезаурусные аналоговый идеографический учебного типа, тезаурусы, тезаурусы, тезаурусы, тезаурусы.	словари, словари, словарь, словарь печатные электронные ассоциативные визуальные	информационных технологий в жизнь ставит перед лингвистикой, как и всеми отраслями, требование к радикальной реформе, изменения вида, формы словаря, его содержания. С этой точки зрения из новых видов лексики, ярким примером систематического характера языка на сегодняшний день являются идеографические, тезаурусные словари, представляющие собой словари с рядом удобств для пользователей. По этой причине в данной статье рассматриваются особенности идеографических и тезаурусных словарей, их несколько видов, их общие черты, а также высказывается мнение о том, что создание подобных словарей имеет особое значение не только для развития современного узбекского языкознания, но и для эффективного преподавания этого языка. Кроме того, тезаурусы являются одним из наиболее эффективных средств описания духовных групп отдельного слова в электронном формате. В этой ситуации тезаурус приносит гораздо больше удобств в осуществлении качественного процесса перевода.		

Kirish. Tezaurus lugʻatlarning yaratilish tarixiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, u ideografik lugʻatlar asosida shakllanganligining guvohi boʻlishimiz mumkin. Xususan, gʻarb tilshunosligi leksikografiyasini mukammal oʻrgangan ideografik lugʻat yaratishning asoschilaridan biri rus tilshunosi V. V. Morkovkin mazkur turdagi lugʻatlarni uch turga: ideografik tezaurus (идеографические тезаурусы), analog lugʻat (аналогический словарь), oʻquv tipidagi ideografik lugʻat yoki mavzuli lugʻat (словарь идеографический или тематический словарь учебного типа)larga ajratadi [Морковкин, 1970; 72]. Muallif ideografik tezaurusning yorqin namunasi sifatida Mark Piter Rogerning 1852-yilda yaratilgan “Inglizcha soʻz va iboralar tezaurusi” kitobini, 33 yildan keyin 1885-yilda nashr etilgan ilohiyot fanlari doktori, Lion katolik universiteti professori Eli Blanning "Fransuz tilining mantiqiy lugʻati yoki soʻzlarning tabiiy va falsafiy tasnifi. Tushunchalar va obyektlar” («Логический словарь французского языка, или естественную и философскую классификацию слов, понятий и предметов») lugʻat kitoblarini misol qilib keltiradi. Tezaurus tipidagi ideografik lugʻat tuzuvchining asosiy vazifasi til birliklarining konseptual guruhlarini aniqlash va uni oqilona tasniflash boʻlsa, analog lugʻatlarni yaratuvchilar oʻz oldiga lugʻatni mavzuviy tashkil etishni maqsad qilib qoʻygani holda alifbo shaklidan voz kechmaydilar. Natijada tanlab olingan leksik-semantik guruhlar

analog lugʻatda mavzuviiy dominantlar (markaziy soʻzlar) alifbo tartibida joylashadi. Bu borada rus tilshunosi Yu. N. Karaulov ham tezaurus ideografik lugʻat sifatida leksik birliklarning maʼnolari boʻyicha qidirishni taʼminlaydigan tushunchalarning iyerarxik tizimini ideal shaklda ifoda etadigan zamonaviy lugʻat turi ekanligini qayd etadi [Капулов, 1981]. Xullas, tezaurus tipidagi ideografik lugʻatlarda leksik-semantik guruhlarining tabiati va soni tilning semantik imkoniyatlariga qarab belgilansa va muammo asosan ularni aniqlash va tasniflashda boʻlsa, u holda oʻquv mavzuli lugʻatlarni yaratishda asosiy vazifa — taʼlim maqsadlariga mos keladigan mavzularni tanlashdir [Морковкин, 1970; 72].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Soʻnggi yillarda tilshunoslikda ideografik, tezaurus lugʻatlar yuzasidan alohida ilmiy izlanish olib borgan tadqiqotchilar ham tezaurus lugʻatlarni ideografik lugʻatlarning bir koʻrinishi yoki uning aynan ekvivalenti sifatida tavsiflaydilar: tezaurus "ideografik lugʻatlar" asosida yaratilganligi sababli "tezaurus "va" ideografik lugʻat" soʻzlarini sinonim sifatida ishlatish maqsadga muvofiqdir [Хамраева, 2010; Осокина, 2015]. Bu borada samarali faoliyat olib borayotgan rus tilshunosi S. A. Osokina anʼanaviy ravishda ideografik lugʻatlarni yaratilish tarixini uch bosqichga: qadimiy ideografik lugʻatlar, zamonaviy davr lugʻatlari va XX–XXI asrlarda nashr etilgan zamonaviy lugʻatlarga ajratadi [Осокина, 2015; 24]. Tadqiqotchi Yo. N. Hamrayeva esa "tezaurus" va "ideografik lugʻat"larning bir turdagi lugʻatlar sanalishiga quyidagi umumiy jihatlarni keltiradi:

1. Ularda soʻzlarning izohi berilmaydi.
2. Ularning asosini onomasiologik tadqiq usuli tashkil etadi.
3. Ularda soʻz-tushunchalar orasidagi leksik-semantik munosabatlar koʻrsatiladi.
4. Tushunchalarni talqin qilishiga koʻra ular izohli lugʻatlarga yaqin turadi.
5. Ularda tushunchalar sifatida soʻz, soʻz birikmalari, frazemalar olinadi [Хамраева, 2010].

Bugungi kunda bu kabi lugʻatlar har bir tilning soʻz boyligini toʻliq tavsiflash bilan birga u muhim tushunchalarni tez qidirish sifatida ham ishlatilishi jihatdan ahamiyatli sanaladi. Shu nuqtayi nazardan tezaurus lugʻatlarning oʻziga xos xususiyatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- 1) tildagi barcha soʻzlarni matnlarda ishlatilish imkoniyatining toʻliq roʻyxatini taqdim etadigan ideografik lugʻat turi;
- 2) maʼlum bir semantik munosabatlar tizimiga ega boʻlgan muayyan bir tilning maʼno ifodalovchi birliklari toʻplami [Шрейдер, 1976];

3) leksik birliklar orasidagi semantik munosabatlar batafsil tavsiflanadigan umumiy yoki maxsus lug‘atlarning mukammal namunasi" [Шайкевич, 1998; 506-507];

4) so‘zni boshqa so‘zlar bilan semantik aloqasi bo‘yicha qidirishga mo‘ljallangan lug‘at;

5) lug‘atda so‘zlarni tartibga solishning ma’lum bir usuli;


6) muayyan bir tildagi har bir so‘zining ulkan imkoniyatlarini bir o‘rinda jamlab ko‘rsatadigan lug‘at turi [Караулов, 1976; 76].

S. A. Osokina jahon leksikografiyasida mavjud tezaurus lug‘atlarni uch turga: bosma tezauruslar, elektron tezauruslar, assotsiativ tezauruslarga bo‘lib tavsiflaydi [Осокина, 2015]. Bosma tezaurus lug‘atlarining asosiy muammolaridan biri kerakli so‘zni tezda topish muammosi mavjud bo‘lsa-da, elektron tezauruslar esa ushbu muammoni yetarli darajada hal qilishga qodir. Ingliz tili materiallari asosida assotsiativ tezauruslarni tuzish XX asrning 70-yillarida amalga oshirila boshlandi. Shulardan biri “Edinburg assotsiativ tezaurusi” sanaladi [<http://www.eat.rl.ac.uk>]. Unda leksik birliklar orasidagi sintagmatik munosabatlar o‘z ifodasini topadi. Mavjud tezaurus lug‘atlarining elektron versiyalarini yaratish borasida ingliz va rus tilshunosligida samarali ishlar qilingan bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligida hatto tezaurusning bosma shakli ham hali hanuz yaratilmagan. Mana bu kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb muammolardan biridir. Buning uchun, avvalo, lug‘aviy birliklar, xususan, fe‘l so‘z turkumining zamonaviy yirik hajmli semantik hamda tushuntirish (izohli) lug‘atlarini ishlab chiqish zarur, chunki bu kabi lug‘atlar tezaurus yaratishda asosiy manba vazifasini bajaradi. Zero, muayyan til birliklarining semantikasini ishlab chiqmasdan mukammal tezaurus lug‘atlarni yaratish qiyin. Bu kabi lug‘atlar nafaqat Yevropa tilshunosligida, hatto rus tilshunosligida allaqachon yaratilgan. Xususan, 1998-yil Rossiya Fanlar akademiyasi tilshunos olimlari tomonidan 6 jilddan iborat, so‘zlar va ma’nolar sinflari bo‘yicha tizimlashtirilgan rus tilining semantik lug‘ati nashr etilgan. Bu lug‘at, umuman olganda, 300 000 ga yaqin leksik birliklar – so‘z va frazeologik birliklarning ma’nolarini qamrab olgan. Har bir jild mustaqil leksikografik tadqiqot bo‘lgan alohida tayyor ish hisoblanadi [PCC, 1998 -2007]. "Ruscha semantik lug‘at" kitobining 4- va 5-jildlarida bevosita fe‘l so‘z turkumiga mansub leksik birliklar izohlanadi, fe‘llar leksik tizimining tavsifi, iyerarxik tarzda tashkil etilgan leksik-semantik to‘plamlar – barchasi birlashib, har biri alohida leksik sinflarni tashkil qiladi. Bular bog‘lovchi va yarim mustaqil ma’noli fe‘llar, frazali fe‘llar, modal fe‘llar, bog‘lanish, munosabat va nomlash fe‘llari; deyktik fe‘llar; ekzistensial fe‘llar; haqiqiy faol harakat, faoliyat fe‘llarini o‘z ichiga oladi [PCC, 2007]. Rus tilidagi fe‘llarning ideografik-izohli lug‘ati ham keng qamrovli lug‘at bo‘lib, o‘zida izohli, ideografik va ikki tilli tarjima lug‘atlari tamoyillarini mujassam etgan [TCPЯ, 1999]. Mazkur lug‘atda 25 000ga yaqin fe‘l

mavjud, ular ma'nosiga ko'ra bir necha guruhlarga birlashadi, har bir fe'ning inglizcha ekvivalenti bo'lib, ularga alohida semantik izoh beriladi.

Tahlil va natijalar. Endi bevosita tezaurus lug'atlarda leksik birliklarning semantik tahlili haqida fikr yuritilganda rus tadqiqotchisi S. Gindinning quyidagi tezaurus (ideografik) lug'atga nisbatan ishlatgan jumlasini keltirish ayni muddaodir: "til sohiblarining avlod-ajdodlari tomonidan to'plangan ma'nolar zaxirasining eng qulay va eng yorqin in'ikosi" [Гиндин, 2001]. Aytish mumkinki, muayyan bir tildagi ma'lum bir so'zning barcha ma'no qirralarini aniqlash uchun dastlab izohli, so'ng sinonim, antonim, uyadosh so'zlar lug'atini birma-bir varaqlashga to'g'ri keladi, ammo shu kabilarning hammasi bitta tezaurusda, tushunchalarni qidirishga mo'ljallangan elektron tezaurus lug'atda berilsa ayni muddao emasmi? Bu rivojlangan tillar tishunosligida allaqachon amalga oshirilgan jarayon. Ta'kidlash joizki, sinonim, antonim tushunchalarning bir o'rinda ketma-ket berilmaganligi bir tarafdin xorijlik talabalarning o'zbek tilidagi so'zlarning ma'nolarini o'rganishi uchun lug'atlardan foydalanishiga qiyinchilik tug'dirsa, ikkinchi tomondan esa tarjima jarayonida ham ba'zi murakkablik va chalkashliklarni yuzaga keltiradi. Tezaurus lug'atlarda esa har bir leksema sinonim guruhlarda, uning semalari, boshqa leksemalar bilan birikish imkoniyatlari (valentliklari), sintagmatik va paradigmatic munosabatlari yaxlit holda bir o'rinda qayd etilishi sababli bu kabi muammolar yuzaga kelmaydi. Boshqacha aytganda, taniqli leksikograf V. I. Dal mavzuviy lug'atlarning alifbo tartibidagi lug'atlardan farqi va afzalliklarini ko'rsatish maqsadida: "So'zlarning alifbo tartibidagi joylashuvi naqadar quruq va ma'nosizdir. Bunday lug'atni o'qishga kuch topish qiyin. O'ninchi so'zga yetmasdanoq aqlimiz o'tmaslashib, boshimiz aylanib qoladi, holbuki, bizning zehnimiz hamisha har narsada oqilona bog'lanishni, tadrijiylikni va mantiqiy izchillikni talab qiladi" [Даль, 1989]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tezaurus lug'at — bu har qanday ilmiy yoki texnik sohaning hamda ma'lum bir tilning butun so'z boyligini tizimli ravishda tartibga soladi.

Endi tezaurusning yana bir shakli vizual tezaurusga to'xtaladigan bo'lsak, u interaktiv lug'at-tezaurus bo'lib, unda qidiruv paneliga ma'lum bir deskriptorni yozsangiz, ekranda o'sha so'zning ajoyib semantik diagrammasi paydo bo'ladi, so'ng deskriptorning har bir sinsetiga kompyuter sichqonchasini olib borsangiz semantik diagramma (to'r) bir qalqib, boshqacha shakl hosil qiladi, bu vizual tarzda so'zlar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash imkonini beradi [<https://www.visualthesaurus.com/trialover/>]. Masalan, vizual tezaurus saytiga kirib, "write" so'zini yozganimda ekranda chap tomondagi chizma va uning sinonimlari paydo bo'ldi. Mazkur jadvalda aks etmagan sinonimlarga kompyuter sichqonchasini olib borib tegganimda o'ng tomondagi chizma ham yozuv ko'rindi:



Tezaurusning asosiy maqsadi foydalanuvchilarga ular ifodalamoqchi boʻlgan gʻoya yoki tushunchaga mos keladigan soʻz, soʻz birikmasi, iboralarni topishga yordam berishidir. Har bir tezaurus boshqacha boʻlishi mumkin, ammo maqsad bitta: nimani nazarda tutayotganingizni aytishning muqobil usullarini taqdim etish va bu muqobillar orasidagi farqlarni taklif qilishdan iborat.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, tezaurusning vazifasi asosiy semantik maydonlarni, ularning ichki tuzilishi va tashqi aloqalarini koʻrsatib, lingvistik materialning maʼlum bir boʻlagi haqida semantik tushuncha berishdir. Tezaurus — bu tilning tizimli tabiatining yaqqol namoyonidir, bu bizga individual lingvistik birliklar va birliklar guruhlarini bir -biriga bogʻlaydigan turli munosabatlarni anglashga imkon beradi.

Hozirgi kunda elektron tezauruslarning. internetda bir nechta qulay variantlari mavjud. Bularga thesaurus.com, collins thesaurus va Oksford thesauruslari misol boʻla oladi. Foydalanuvchilar sinonimlar va antonimlarning toʻliq toʻplamini koʻrish uchun soʻzni kiritishlari kerak. Qolaversa, matn protsessorlarining koʻp dasturlarida toʻgʻridan toʻgʻri oʻrnatilgan tezauruslar mavjud. Soʻz ustiga sichqonchaning oʻng tugmachasini bosish va menyuni toʻgʻri tanlash orqali foydalanuvchilar sinonimlarning butun roʻyxatiga va hatto qalqib chiquvchi tezaurusga kirishlari mumkin. Shunday ekan, alifbo shaklida tuzilgan lugʻatlar asosida oʻzbek tilining kompyuterga asoslangan lingvistik-leksikografik bazasini yangilash, yaratish zarurligi bugungi kun tilshunoslari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

- [1]. Морковкин В. В. [Идеографические словари](#). – М.: Изд. Моск. ун-та, 1970. – 72 с.
- [2]. Караулов Ю. Н. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языка. – М. : Наука, 1981. – 368 с.

[3]. Ҳамраева Ё. Н. Ўзбек тилининг идеографик луғатини тузиш тамойиллари (ҳаракат ва ҳолат тушунчасини ифодаловчи сўзлар мисолида) дис. филол. фан. номзоди. – Тошкент, 2010 – 172б.

[4]. Осокина С. А. Основания лингвистической теории тезауруса: дисс. доктора филологических наук. – Барнаул, 2015 – 437 с. [электронный ресурс].

[5]. Шрейдер, Ю. А. Тезаурус / Ю.А. Шрейдер // Большая Советская энциклопедия. – М. : Советская энциклопедия, 1976. [электронный ресурс]. – URL: <http://slovari.yandex.ru/~книги/БСЭ/Тезаурус> (дата обращения 23.03.2009).

[6]. Шайкевич, А.Я. Тезаурус // Языкознание: Большой энциклопедический словарь. – М. : Большая Российская энциклопедия, 1998. – С. 506-507.

[7]. Караулов, Ю. Н. Общая и русская идеография / Ю.Н. Караулов. – М. :Наука, 1976. – 356 с.76